

ASLIYATDAGI MAMLAKATSHUNOSLIKKA OID TERMINLAR VA ULARNING TARJIMADA QAYTA YARATILISHI XUSUSIDA

*Tairova Maxfuza Abdusattorovna, Termiz davlat
universiteti ingliz tili va adabiyoti kafedrasida mustaqil
tadqiqotchisi*

THE TERMS OF THE ORIGINAL COUNTRY STUDIES AND THEIR RE-CREATION IN TRANSLATION

*Tairova Maxfuza Abdusattorovna, independent
researcher of the Department of English language and
literature, Termez State University*

О ТЕРМИНАХ, ОТНОСЯЩИХСЯ К ОРИГИНАЛЬНОМУ СТРАНОВЕДЕНИЮ, И ИХ ВОССОЗДАНИИ В ПЕРЕВОДЕ

*Таирова Махфуза Абдусатторовна, независимый
исследователь кафедры английского языка и литературы
Термезского государственного университета*

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatshunoslikka oid terminlar qiyosiy tahlili va ularning tarjimada qayta yaratilishi muammolari inglizcha-o'zbekcha misollar orqali o'rganiladi. Mamlakatshunoslikka oid terminlar tadqiqi natijasidan badiiy adabiyotni bir tildan ikkinchi tilga o'girish bilan bog'liq muammolarni bartaraf etishda muhim omil bo'lib xizmat qilishi aniqlandi.

Kalit so'zlar: asliyat, lingvistik tadqiqot, tarjima, ekvivalentlik, mamlakatshunoslik, xususiyat, lingvomamlakatshunoslik, transformatsion, tushuncha, etnopsixolingvistika.

Abstract. This article examines English-Uzbek examples to explore a comparative analysis of regional studies terms and the problems of their reproduction in translation. As a result of studying the terms associated with regional studies, it was found that it serves as an important factor in solving problems associated with the translation of fiction from one language to another.

Keywords: originality, linguistic research, translation, equivalence, regional studies, characteristics, regional linguistic studies, transformation, understanding, ethnopsycholinguistics.

Аннотация: В данной статье на англо-узбекских примерах исследуются сопоставительный анализ терминов страноведения и проблемы их воспроизведения в переводе. В результате изучения терминов, связанных со страноведением, установлено, что оно служит важным фактором в решении проблем, связанных с переводом художественной литературы с одного языка на другой.

Ключевые слова: оригинальность, лингвистическое исследование, перевод, эквивалентность, страноведение, характеристика, лингвострановедение, трансформация, понимание, этнопсихолингвистика.



[https://orcid.org/
0000-0004-0714-0813](https://orcid.org/0000-0004-0714-0813)

e-mail:
[maxfuza604@gmail.c
om](mailto:maxfuza604@gmail.com)

KIRISH. Tarjima nazaryasi o‘z tadqiqotlarini boshqa qator an’anaviy filologik, ayniqsa, lingvistik tadqiqot metodlaridan o‘rni bilan foydalangani holda, ko‘proq siyosiy solishtirma metod bilan chambarchas bog‘liqlikda qo‘llaniladigan semantik-uslubiy metod asosida olib boradi. Shu bilan birga, aslyiat va tarjima tillari lisoniy vositalarni batafsil tahlil qilish zaruriyati lingvistik tadqiqotning boshqa ayrim maxsus metodlaridan ham, jumladan, komponentlar tahlil qilish metodidan foydalanishni taqozo etadi. Bunday paytda qiyoslanayotgan ikki til birliklarining turli kontekstlarda qo‘shimcha ma’no belgilarini kasb etish holatlari tahlil etiladi. Bir-birlarini to‘ldirishga xizmat qiladigan mazkur metodlar amalga oshirilgan tarjimalarni har jihatdan puxta va xolis baholash imkoniyatini beradi.

Aslyiatdagi mamlakatshunoslikka oid terminlar xususiyati uning retseptorga (kitobxon yoki tinglovchi) biror ijobiy yoki salbiy ta’sir o‘tkazish imkonini beradi va matnda (yoki nutqda) ifodalangan muallif fikrining retseptor tomonidan to‘g‘ri tushunilishiga yordam beradi.

Aslyiatdagi xuddi shunday mamlakatshunoslik oid terminlarning tarjimada ham qayta yaratilishi ko‘p jihatdan tarjimonga bog‘liq.

Aslyiatning mamlakatshunoslikka oid terminlarini tarjimada qayta yaratishda tarjimonning aslyiat matnini zamonaviylashtirishi

sifatsiz tarjima yaratilishiga sabab bo‘lishi mumkin, chunki bunday harakat aslyiat matnining o‘zgarib ketishiga olib keladi.

Ko‘p hollarda aslyiat va tarjimaning mamlakatshunoslik salohiyatini aniqlashda tarjimon tomonidan yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarga e’tibor beriladi. Zero, kamchiliklardan xalos bo‘lish bu birinchi galdagi vazifadir.

Aslyiatdagi mamlakatshunoslikka oid terminlarni tarjimada qayta yaratishda tarjimon bir qancha qiyinchiliklarga duch keladi. Jumladan, o‘zbek tarjimoni aslyiat matnini tushunmasligi, jug‘rofiy ma’no ona tili vositalari orqali ifodalanishi mumkin bo‘lsa-da rus tarjimoni orqasidan ergashishi, aslyiatda ifodalangan jug‘rofiy ma’no rus tilida qisman, o‘zbek tilida to‘la qayta tiklanishi va aksincha, aslyiatdagi mamlakatshunoslikka oid terminlarning potensial rus tilida to‘la, o‘zbek tilida esa qisman qayta tiklanishi, shuningdek, aslyiatdagi jug‘rofiy ma’no rus tilida yoki o‘zbek tilida mavjud bo‘lmasligi oqibatida turli tipdagi transformasiyalar orqali ifodalanishi mumkin [2. 69].

ADABIYOTLAR TAHLILI. Masalan, quyidagi misolda rus va o‘zbek tarjimoni aslyiatdagi mamlakatshunoslikka oid tushunchani kitobxonga tushunarli tarzda yetkazish uchun tarjimada “Kolumbus” so‘zini qo‘shgan.

The hotel, into which they were thus summarily introduced, was a rather remarkable specimen for the time and place.

Ona-bola nogahon ish boshlagan musofirxonada o‘sha paytlar uchun ham nihoyatda ajib bir dargoh sanalardi.

One morning, in the fall of 1880, a middle – aged woman accompanied by a young girl of eighteen, presented herself at the clerk’s desk of the principal hotel in Columbus, Ohio, and made inquire as to whether there was anything about the place that she could do.

Asliyatdagi mamlakatshunoslikka oid ko‘rsatkichlar yoki belgilarning tarjimon tomonidan to‘g‘ri aniqlab olinishi, tarjimada ham ularning to‘g‘ri qayta yaratilishiga zamin yaratadi.

Asliyatdagi “presented, principal hotel, clerk’s desk, a young girl of eighteen” kabi so‘zlar mamlakatshunoslikka oid belgilar bo‘lib, ularni to‘g‘ri anglagan tarjimon tarjimada ham ushbu mamlakatshunoslikka oid belgilarni nisbatan qayta yarata olgan:

- 1880-yil kuzining subhidamlaridan birida yoshi o‘tinqiragan bir ayol o‘n sakkizga kirgan qizi bilan Kolumbus shahridagi (Ogoyo shtati) manaman degan mehmonxonaga bosh suqdi-da, nozirga yaqinlashib, bu yerda birorta ish topilarmikin, deb so‘radi.

Tarjimonning asliyatdagi mamlakatshunoslikka oid terminlarini soddalashtirib o‘g‘irishga urinishi, ya‘ni undagi emotsional, stilistik, obrazli aspektlarni e‘tibordan chetda qoldirib “asosiy ma‘no”ni berishga urinishlari tarjimada yaxshi natija bermaydi. Bunday tarjima qisqa muddatda retseptor matnning asosiy mazmuni bilan tanishtirish maqsadida qilinsagina, o‘zini oqlashi mumkin. Aks holda, bunday soddalashtirilgan tarjima adekvat tarjimaning boshlang‘ich etapi sifatida qaraladi.

NATIJALAR. Biz bilamizki, tildagi ko‘pchilik so‘zlarning ikki xil ma‘nosi ya‘ni, denotativ va konnotativ o‘z va ko‘chma ma‘nolari mavjud. Agar asliyatdagi matnning mamlakatshunoslikka oid terminlar shunday so‘zlar zimmasiga yuklangan bo‘lsa, unda tarjimada ularni qayta yaratish uchun qanday yo‘l tutmoq kerak degan savol tug‘ilishi tabiiydir. Gap shundagi asliyatdagi ko‘chma ma‘nodagi so‘zlarning mamlakatshunoslik oid terminlarini tarjimada berish uchun birinchi navbatda tarjimon asliyat matnidan, undagi voqealar ketma-ketligidan xabardor bo‘lishi kerak. Asliyatdagi biror so‘zning qanday ma‘noda qo‘llanilayotganligini bilgandan so‘ng tarjima tilida shunga mos keladigan ekvivalentlarni tanlaydi. Masalan, o‘zbek tilida kekxa kishilarning sochiga nisbatan **sochi oqargan**

yoki **oq soch** iboralarini qo‘llaniladi. Bunda **oq** so‘zi ko‘chma ma‘noda ishlatiladi. Agar o‘zbek tilidagi bu iborani ingliz tiliga so‘zma-so‘z tarjima qilsak, u holda ushbu ibora **white hair** tarzida bo‘lishi kerak edi. Ammo, bunday tarjima ingliz kitobxonini uchun tushunarsiz bo‘lib qoladi va asliyatdagi ibora tarjimada mamlakatshunoslikka oid tushunchalarni yo‘qotadi. Bu o‘rinda asliyatdagi mamlakatshunoslikka oid xususiyatni saqlash uchun ingliz tilida mavjud bo‘lgan **grey hair** ekvivalenti bilan tarjima qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xuddi shunday, asliyatda qo‘llanilgan adabiy yoki og‘zaki nutqqa tegishli so‘zlarni tarjimada ham o‘shanday so‘zlar bilan qayta yaratilishi tarjimada asliyatning mamlakatshunoslikka oid salohiyatini saqlash imkonini beradi. Misol uchun, ingliz tilidagi *despite the fact, in the matter of, a long period of time, in the capacity of, resembling in nature, reach a decision* kabi so‘zlar adabiy nutqda qo‘llaniladigan so‘zlar bo‘lib, ularning og‘zaki nutqdagi sinonimlari *although, about, a long time, as, like* va *decide* dir.

XULOSA. Demak, mamlakatshunoslikka doir omillar ekvivalentlikning tarkibiy unsuri hisoblanib, ularning qayta yaratilishi tarjimaning asliyatga kommunikativ to‘la-to‘kis mosligini vujudga keltiradi. Natijada, tarjima muqobil uslubiy xususiyat kasb etib, uni o‘qigan kitobxon asliyat sohibi asar mutolaasidan oladigan taassurot darajasida ta’sirlanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Klenberg O. Tensions Affecting International Understanding. 1950. – 216. p.
2. Levinson S. Presumptive Meanings: The Theory of Generalized Conversational Implicature. –Cambridge, Mass.: MIT Press, 2000. – 201. p.
3. Savory Th. The Art of Translation. London, 1957. – 298. p.
4. Аникин В.П. Мудрость народов // Пословицы и поговорки народов востока. – М.: Наука, 1961. – 218 с.
5. Арнольд И.В. Стилистика. Современный английский язык. М.: Флинта, Наука, 2002. – 138 с.